



ATB InfinBANK

Mijoz – bizning asosiy qadriyatimiz!

Bank haqida ma'lumot

- 26.10.2007 y. – «InfinBANK» tashkil qilingan sana;
- 2010-y. - «InfinBANK» respublikaning eng yaxshi banklari 20taligiga kirdi;
- 2016-y. - ISO 9001:2015 sertifikatini olindi;
- 2016-y. bankning 27,9 mln aksiyasi realizatsiya qilindi, bu Respublika fond birjasi uchun rekord ko'rsatkich bo'ldi;
- 2018-y. – unikal overdraft mahsuloti ishga tushirildi;
- «InfinBANK» Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi baholashiga ko'ra, eng yaxshi xususiy banklar uchligiga kiradi;
- 2019-yilda InfinBANK mobil ilovasi dunyo yuzini ko'rdi;
- 2021-yilda murakkab va muhim loyiha amalga oshirildi – o'z karta protsessingi ishga tushirildi. Bank Visa va Union Pay to'lov tizimlarining prinsipial a'zosiga aylandi.




Innovatsion rivojlanish yoʻlida

Oxirgi yillarda «InfinBANK» faol innovatsion taraqqiyotni nazarda tutuvchi strategik yoʻnalishni amalga oshirmoqda. Ushbu strategiya doirasida oʻzbekistonda ilk marotaba quyidagi yirik loyihalar amalga oshirildi:

- Korporativ maʼlumotlar omborining yaratilishi (KMO)
- Mijozlar bilan aloqalarni boshqarish tizimining joriy etilishi (Customer Relationship Management – CRM)
- Kredit konveyeri tizimining joriy etilishi va u tufayli kredit ajratish jarayonining avtomatlashtirilishi
- oʻz karta protsessingi ishga tushirilishi. Bank Visa va Union Pay toʻlov tizimlarining prinsipial aʼzosi ga aylandi.




Korporativ ma'lumotlar ombori - KMO



- 220dan ortiq manba – bank tizimlari va bo‘linmalari, jumladan, CRM va Kredit konveyeriga oid ma’lumotlar korporativ ma’lumotlar omborida saqlanadi.
- Mazkur «yagona haqiqat maydoni» bank menejmentiga biznesdagi kutilmagan holatlar ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish, o‘z vaqtida boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish, bank faoliyatining barcha yo‘nalishlari bo‘yicha hisobot yuritish imkoniyatini beradi.
- Tizimning alohida o‘ziga xosligi – dastlabki ma’lumotlarni qo‘lda tuzatish imkoniyatining yo‘qligidir, bu faktik axborotlar buzilishining oldini oladi va uning ishonchligi kafolati hisoblanadi.


Customer Relationship Management – CRM

- Bank bo'linmalarining 1 mln.dan ortiq mijozlarni yagona tizimda jamlanishi;
- Mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonining sezilarli tezlashishi;
- Mijoz hujjatlar paketini faqat bir marotaba taqdim etadi – tizim uni eslab qoladi;
- Avtomatik identifikatsiya va so'rovlar bilan ishlashning tartibga solingani hisobiga yuqori darajada shaffoflikning ta'minlanishi;
- Murojaatlar tarixiga oid to'plangan ma'lumotlar mijoz talablarini tahlil qilish va unga bank mahsulotini targetlangan ko'rinishda taqdim etish imkonini beradi.



Kredit konveyeri

- Kredit uchun arizalarni qayta ishlashning tashabbus ko'rsatish, tizimlashtirish va moliyaviy tahlildan tortib, shartnomani rasmiylashtirish va imzolashgacha bo'lgan barcha jarayonlari avtomatlashtirilgan bo'ladi;
- Kredit konveyeri qarorlar qabul qilishda "inson faktori" ta'siriga yo'l qo'ymaydi;
- Bank xodimining har bir harakati tizimda aks etadi;
- Skoring natijalarini soxtalashtirish xavfi yo'q;
- Eng yengil talablarga mos kelmaydigan mijozga kredit ajratishga tizim tozonidan yo'l qo'yilmaydi!
- Tashqi manbalar bilan integratsiya – Badallar reyestri, Kredit idorasi (АСОКИ), НИБДД (yuridik shaxslar reyestri), YaUPM
- Bir klikda so'rovlarni parallel ravishda yuborish orqali qarz oluvchining kreditga layoqatini tekshirishning bir necha marotaba tezlashtirilishi; Bank mijozlari o'z arizasini barcha bosqishlarda ko'rish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ariza holatlari bo'yicha mijoz mobil telefoniga xabarnomalar yuboriladi.




o‘z protsessingini qurish

- Prinsipial a‘zolikka ega bo‘lish – Visa va UnionPay bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamkorlik
- 3D-Secure dasturining Visa va UnionPay kartalarida joriy etilishi
- VISA Direct ishga tushirilishi
- PIN’ni terminal yoki mobil ilova orqali o‘rnatish va o‘zgartirish imkoniyati
- Bank filiallari va bo‘limlarida 5 daqiqa ichida tezkor chiqarib berish (avval – faqat bosh ofisda)
- Kredit va virtual kartalarini chiqarish imkoniyati



Unikal mahsulot – kredit kartalari

- Innovatsion texnologiyalarni joriy etish bankka bozorda unikal mahsulot – kredit kartalarini ishga tushirish imkonini berdi;
- Keng tarqalgan mikrozaym mahsulotidan farqli ravishda, overdraftdagi foizlar faqat siz kartadan foydalangan kunlar va kredit cheklovi doirasida ishlatilgan mablag' uchun hisoblanadi;
- Kredit o'ziga xosligi – qayta tiklanuvchi kredit cheklovi. So'ndirib borish davomida summa tiklanadi va ma'lum kredit cheklovi doirasida mablag'larni yana ishlatish mumkin;
- Skoring onlayn va avtomatik tarzda sanoqli daqiqalarda amalga oshiriladi.
- Kredit olish uchun bank mijozi bo'lish shart emas.



Bizning yutuqlarimiz

- Har yili o'tkaziladigan «SAP QUALITY AWARD» mukofotining “Ilg'or texnologiyalar” toifasida qo'lga kiritilgan oltin sovrin Bank innovatsion faoliyatiga berilgan munosib bahodir.
- Shuningdek, Central Asia Employer Brand Award mukofoti va The Banker jurnali tomonidan tashkillashtirilgan “o'zbekistonda yil banki” nominatsiyasida g'olib bo'lgan.
- Bank EXPO-2019 mukofotining “Eng yaxshi internet banking” nominatsiyasi sovrindori.
- Naqdsiz to'lovlarni rivojlantirishda samarali hamkorlik uchun Visa International mukofoti

